

**KORPORATIV VA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING KONSEPTUAL
TAHLILI: STRATEGIK BARQARORLIK VA OPERATSION
SAMARADORLIK MUTANOSIBLIGI**

Bositova Samiya Bahodir qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
UOS BA (HONS) Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti 3- bosqich talabasi
bositovasamiya@gmail.com

**CONCEPTUAL ANALYSIS OF CORPORATE AND FINANCIAL
MANAGEMENT: BALANCING STRATEGIC STABILITY AND
OPERATIONAL EFFICIENCY**

Bositova Samiya Bakhodir qizi

3rd-year student of the UOS BA (HONS) Accounting and Finance program
Tashkent International University of Financial Management and Technologies
bositovasamiya@gmail.com

**КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОРПОРАТИВНОГО И ФИНАНСОВОГО
УПРАВЛЕНИЯ: БАЛАНС СТРАТЕГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ И
ОПЕРАЦИОННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ**

Боситова Самия Баходир кизи

Студентка 3 курса направления «UOS BA (HONS) Бухгалтерский
учет и финансы» Ташкентский международный университет
финансового менеджмента и технологий
bositovasamiya@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy korxonalarni boshqarishning ikki ustuvor yoʻnalishi — korporativ boshqaruv va moliyaviy boshqaruv oʻrtasidagi konseptual hamda amaliy farqlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida korporativ boshqaruvning strategik yoʻnalishlari, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va shaffoflikni taʼminlashdagi oʻrni, moliyaviy boshqaruvning esa operatsion darajadagi resurslarni optimallashtirish va foyda marjasini oshirishga qaratilgan funksiyalari qiyoslanadi. Shuningdek, maqolada Oʻzbekiston iqtisodiyotining hozirgi bosqichida ushbu ikki tizimning oʻzaro integratsiyalashuvi korxonalar barqarorligiga qanday taʼsir koʻrsatishi haqidagi xulosalar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Korporativ boshqaruv, moliyaviy boshqaruv, strategik qarorlar, moliyaviy shaffoflik, ESG tamoyillari, kapital samaradorligi, investitsion loyihalar, rentabellik koʻrsatkichlari, dividend siyosati.

Abstract: This article analyzes the conceptual and practical differences between two priority areas of modern enterprise management — corporate governance and financial management. During the study, the role of corporate governance in strategic directions, protection of shareholder interests, and ensuring transparency is compared

with the functions of financial management aimed at optimizing resources and increasing profit margins at the operational level. Additionally, the article presents conclusions on how the integration of these two systems affects corporate stability in the current stage of Uzbekistan's economy.

Keywords: Corporate governance, financial management, strategic decisions, financial transparency, ESG principles, capital efficiency, investment projects, profitability indicators, dividend policy.

Аннотация: В данной статье анализируются концептуальные и практические различия между двумя приоритетными направлениями управления современными предприятиями — корпоративным управлением и финансовым менеджментом. В ходе исследования сопоставляются роль корпоративного управления в стратегических направлениях, защите интересов акционеров и обеспечении прозрачности с функциями финансового менеджмента, направленными на оптимизацию ресурсов и повышение маржинальности прибыли на операционном уровне. Также в статье представлены выводы о том, как интеграция этих двух систем влияет на устойчивость предприятия на современном этапе развития экономики Узбекистана.

Ключевые слова: Корпоративное управление, финансовый менеджмент, стратегические решения, финансовая прозрачность, принципы ESG, эффективность капитала, инвестиционные проекты, показатели рентабельности, дивидендная политика.

Kirish

Zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar muvaffaqiyati uning boshqaruv tizimining samaradorligiga bevosita bogʻliq. Shu nuqtai nazardan, korporativ boshqaruv va moliyaviy boshqaruv ikki asosiy yoʻnalish sifatida alohida ahamiyatga ega. Ularning vazifalari, maqsadlari va qoʻllaniladigan vositalari bir-biridan farq qilsa-da, birgalikda korxonaning barqaror rivojlanishini taʼminlaydi. Mazkur maqolada ushbu boshqaruv tizimlarining mohiyati, asosiy funksiyalari va ularning oʻzaro farqlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Korporativ boshqaruv nazariyasi asosan "agentlik muammosi" (Agency theory) atrofida shakllangan boʻlib, bu borada Jensen va Meckling (1976) ishlarini alohida taʼkidlash lozim[1]. Ularning fikricha, korporativ boshqaruv mulkdorlar va menejerlar oʻrtasidagi manfaatlar muvozanatini saqlashga xizmat qiladi.

Moliyaviy boshqaruv yoʻnalishida esa J.K. Van Horn va boshqa iqtisodchilar moliya menejmentini aktivlarni boshqarish va moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish sanʼati deb hisoblashadi[2]. Oʻzbekistonlik olimlardan Sh.A. Abdullayeva va boshqalar oʻz tadqiqotlarida korporativ tuzilmalarda moliyaviy

qarorlar qabul qilishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini o'rganishgan[3]. Shunga qaramay, ushbu ikki boshqaruv shaklining o'zaro farqini aynan milliy iqtisodiyot kontekstida qiyosiy o'rganish hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillardagi ilmiy izlanishlar korporativ boshqaruvga faqatgina nazorat mexanizmi emas, balki korxonaning strategik barqarorligini ta'minlovchi tizim sifatida qaramoqda. Xususan, Larcker va Tayan o'z tadqiqotlarida korporativ boshqaruvning "agentlik xarajatlari"ni kamaytirishdagi rolini alohida ta'kidlashgan[5]. Jahon bankining 2022-yildagi hisobotida esa korporativ boshqaruvning ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) standartlari bilan integratsiyalashuvi investitsion jozibadorlikning asosiy shartiga aylangani qayd etilgan[6].

Moliyaviy boshqaruv sohasida Brigham va Houston moliyaviy menejmentni raqamli iqtisodiyot sharoitida kapital tarkibini boshqarish va risklarni prognozlashning zamonaviy usullari bilan boyitishgan[4]. Mahalliy tadqiqotchi A. Abdullayev esa O'zbekistonda korporativ tuzilmalarning moliyaviy shaffofligi bevosita MHXSga o'tish va mustaqil audit tizimining rivojlanishi bilan bog'liqligini isbotlagan[7].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani yozishda ilmiy bilishning induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Korporativ boshqaruv va moliyaviy boshqaruvning umumiy jihatlaridan xususiy farqlariga o'tish orqali qiyosiy tahlil o'tkazildi. Shuningdek, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish metodlari yordamida mavjud nazariy qarashlar guruhlandi.

Tahlil va natijalar.

Korporativ boshqaruv (karparativ boshqaruv) — bu kompaniya yoki tashkilotning strategik va operatsion faoliyatini boshqarish tizimi bo'lib, uning asosiy maqsadi kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlash, shaffoflikni oshirish, manfaatdor tomonlar (aksionerlar, xodimlar, mijozlar, hamkorlar va boshqalar) manfaatlarini himoya qilish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdir.

Korporativ boshqaruv organlari aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa korxonalarda mulkdorlar hamda menejerlar manfaatlarini muvozanatlashtiruvchi tuzilma bo'lib, uch asosiy bo'g'indan iborat:

1. Umumiy yig'ilish (oliy organ),
2. Kuzatuv kengashi (nazorat organi),
3. Ijro etuvchi organ (boshqaruv).

Ular kompaniya faoliyatini strategik rejalashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va samaradorlikni oshirish uchun javobgardir.

Moliyaviy boshqaruv davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi. U moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy boshqaruv samaradorligi davlat

moliyasining holati, makroiqtisodiy muvozanat va investitsion faoliyat bilan chambarchas bog‘liq.

Moliyaviy boshqaruv –bu moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanishni tashkil etish, ularni rejalashtirish, tahlil qilish, tartibga solish va nazorat qilishdan iborat boshqaruv tizimidir. U davlat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholi o‘rtasidagi pul munosabatlarini samarali yo‘naltirishni ko‘zda tutadi.

Moliyaviy boshqaruv organlari

Moliyaviy boshqaruv tizimi bir nechta muhim davlat institutlari tomonidan amalga oshiriladi. Jumladan:

-Prezident va Oliy Majlis –moliyaviy siyosatni belgilaydi, qonunlar qabul qiladi;

-Vazirlar Mahkamasi –davlat moliyaviy siyosatini muvofiqlashtiradi;

-Moliya vazirligi –byudjet loyihasini tayyorlaydi, moliyaviy nazoratni amalga oshiradi;

-Markaziy bank –pul-kredit siyosatini yuritadi;

-Hisob palatasi –byudjet mablag‘lari sarflanishini nazorat qiladi;

-Davlat soliq qo‘mitasi –soliqlarning to‘g‘ri hisoblanishi va tushumini ta‘minlaydi.

Davlat moliyaviy nazorat organi sifatida Hisob palatasi moliyaviy boshqaruvga oid quyidagi vazifalarni bajaradi:

–Hajmi va maqsadga mo‘ljallanganligi bo‘yicha davlat byudjeti va davlat maxsus fondlari daromadlar va xarajatlarining o‘z vaqtida ijro etilishi ustidan nazoratni tashkil qilish va amalga oshirish;

–Davlat mablag‘larining sarflanish va davlat mulkidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini aniqlash;

–Davlat byudjeti va davlat maxsus fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga ta‘sir ko‘rsatadigan yoki xarajatlarning davlat byudjeti hisobidan qoplanishini ko‘zda tutayotgan davlat hokimiyatining qonunlari va normativhuquqiy aktlarini moliyaviy ekspertiza qilish;

–Davlat byudjetining ijrosi va amalga oshirilayotgan nazorat tadbirlarining natijalari to‘g‘risida Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga doimiy ravishda ma‘lumotlarni taqdim etish.

O‘tkazilgan tahlillar korporativ va moliyaviy boshqaruv o‘rtasidagi tub farqlarni bir necha fundamental yo‘nalishlarda namoyon etdi:

*Birinchi*dan, maqsadlar iyerarxiyasi. Korporativ boshqaruvning oliy maqsadi — barcha manfaatdor tomonlar (aktsiyadorlar, kreditorlar, xodimlar) o‘rtasida adolatli munosabatni o‘rnatish va korxonaning "yaxshi obro‘si"ni (goodwill) saqlashdir. Moliyaviy boshqaruvning maqsadi esa ko‘proq pragmatik bo‘lib, u kapital qiymatini oshirish, pul oqimlarini optimallashtirish va likvidlikni saqlashga qaratilgan.

*Ikkinchi*dan, qaror qabul qilish miqyosi. Korporativ boshqaruv darajasida "Nima

uchun?" degan savolga javob izlanadi (masalan, nega biz ushbu bozorga kiriyapmiz?). Bu yerda Direktorlar kengashi strategik yo'nalishni belgilaydi. Moliyaviy boshqaruv esa "Qanday qilib?" savoli bilan shug'ullanadi (masalan, yangi loyihani qaysi manbalar hisobiga moliyalashtiramiz?).

Uchinchidan, risklarni boshqarish subyektlari. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, korporativ boshqaruvda risklar asosan boshqaruv sifati va etika bilan bog'liq (masalan, korrupsiya yoki ma'lumotlarni yashirish). Moliyaviy boshqaruvda esa risklar bozor konyunkturasi bilan bog'liq bo'ladi (masalan, inflyatsiya, valyuta kursi yoki kredit foizi).

To'rtinchidan, natijalarning aks etishi. Moliyaviy boshqaruv muvaffaqiyati moliyaviy hisobotlarda (balans, foyda va zarar) raqamlar bilan ko'rinib, korporativ boshqaruv samarasi bozor kapitallashuvi va investorlarning uzoq muddatli ishonchida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruv reytingi yuqori bo'lgan kompaniyalarda kapital jalb qilish xarajatlari o'rtacha 15-20% ga past bo'lishi kuzatiladi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruv va moliyaviy boshqaruv o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagi jadvalda o'z aksini topadi:

Parametr	Korporativ boshqaruv	Moliyaviy boshqaruv
<i>Maqsadi</i>	Korxonada strategiyasini belgilash, manfaatdor tomonlarni muvofiqlashtirish	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va daromadlilikni oshirish
<i>Yo'nalish</i>	Strategik, nazorat va mas'uliyatga yo'naltirilgan	Operativ va moliyaviy, iqtisodiy ko'rsatkichlarga yo'naltirilgan
<i>Asosiy organlar</i>	Boshqaruv kengashi, audit qo'mitasi, ichki nazorat	Moliyaviy bo'lim, buxgalteriya, moliyaviy analiz bo'limi
<i>Qaror qabul qilish darajasi</i>	Uzun muddatli strategik qarorlar	Qisqa va o'rta muddatli moliyaviy qarorlar
<i>Fokus</i>	Manfaatdor tomonlar va mas'uliyat	Kapital samaradorligi va likvidlik
<i>Natija</i>	Korxonada barqarorligi va reputatsiyasi	Moliyaviy barqarorlik va daromad oshishi

Xulosa va takliflar

O'tkazgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga keldimki, korporativ boshqaruv korxonaning strategik yo'nalishini belgilovchi "himoya qobig'i" bo'lsa, moliyaviy boshqaruv ushbu tizimni harakatga keltiruvchi asosiy "yurituvchi kuch"

hisoblanadi. Men ushbu ikki tizimning o‘zaro uyg‘unligisiz zamonaviy bozor sharoitida korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta‘minlash imkonsiz deb hisoblayman. Shu sababli, tadqiqotim doirasida korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishda faqatgina qisqa muddatli foyda ko‘rsatkichlariga tayanmasdan, korporativ obro‘ va barqarorlikni ta‘minlovchi ESG tamoyillariga asoslangan strategik muvozanatni joriy etishni taklif qilaman. Bunda moliyaviy boshqaruv jarayonlarini ERP tizimlari orqali korporativ hisobdorlik bilan raqamli integratsiya qilish orqali real vaqt rejimida shaffoflikni ta‘minlash lozim deb topdim. Shuningdek, direktorlar kengashi tarkibida mustaqil a‘zolar va audit qo‘mitasining rolini kuchaytirish orqali moliyaviy resurslar sarflanishi ustidan samarali korporativ nazorat mexanizmini o‘rnatish zarurligini ta‘kidlayman. Yakuniy taklifim shundan iboratki, top-menejerlar faoliyatini baholashning KPI tizimini nafaqat sof foyda, balki korxonaning bozordagi uzoq muddatli qiymati va korporativ boshqaruv sifati ko‘rsatkichlariga bog‘lash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*.
2. Van Horne, J. C., & Wachowicz, J. M. (2008). *Fundamentals of Financial Management*. Pearson Education.
3. Abdullayeva Sh.A. (2020). *Moliyaviy menejment*. Darslik. Toshkent.
4. Brigham, E. F., & Houston, J. F. (2021). *Fundamentals of Financial Management*. Cengage Learning.
5. Larcker, D., & Tayan, B. (2020). *Corporate Governance Matters: A Closer Look at Organizational Choices and Their Consequences*. Pearson.
6. World Bank (2022). *Corporate Governance and ESG Reporting Trends*. Washington, DC.
7. Abdullayev, A. (2023). O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni transformatsiya qilish yo‘llari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*.